

## IBN SINO

*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi*

*1-bosqich talabalari*

*Yusupova Kumushoy Bahodirjon qizi*

*Mo'minova Sevinch Akbar qizi*

### Annotatsiya

Ushbu maqola Ibn Sinoning hayoti va tibbiyotda erishgan yutuqlari, tibbiyot sohasida yozilgan asarlari, ko'plab sohalardagi izlanishlari hamda tushunchalari ruhshunoslik va ilmiy metodologiyadagi innotsiyalari, ilmiy merosining hozirgi kundagi ahamiyati, "Metafizika" va "Ilmiy tafakkur" kabi asarlaridagi asosiy falsafiy g'oyalari va ruh va jismning o'zaro aloqasi, inson bilmining kelib chiqishi haqidagi fikr va mulohazalar keng tarzda yoritilgan.

### Абстрактный

В этой статье рассказывается о жизни и достижениях Ибн Сины в медицине, его трудах, написанных в области медицины, его исследованиях и концепциях во многих областях, новациях в психологии и научной методологии, значении его научного наследия сегодня, его основных философских идеях в его Широко освещены такие произведения, как «Метафизика» и «Научная мысль» и «Взаимоотношения души и тела, мысли и мнения о происхождении человеческого знания».

### Abstract

This article is about Ibn Sina's life and achievements in medicine, his works written in the field of medicine, his research and concepts in many fields, innovations in psychology and scientific methodology, the importance of his scientific heritage today, his main philosophical ideas in his works such as "Metaphysics" and "Scientific Thought" and The relationship between soul and body, thoughts and opinions about the origin of human knowledge are widely covered.

Kalit

so'zlar: Ibn Sino, aql, ruh, jism, falsafiy tizim, falsafiy qarashlar, mantiq,

mavjudlik , Islom falsafasi ,Metafizika , inson tafakkuri,Ibn Sino asarlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev,bir necha bor o'z nuqti va rasmiy bayonotlarida Ib Sino haqida gapirgan . Unda Ibn Sinoning ilmiy merosi va qoldirgan asalari, O'zbekiston tarixidagi o'rni haqida alohida ta'rif berilgan. Prezidentimizning fikrlariga ko'ra : Ibn Sino -Buyuk mutafakkir va ilm -fan ustozidir. Prezidentimiz Ibn Sinoni nafaqat Islom dunyosining ,balki butun jahon ilm -fanining vakili deb ataydi . U zotning tibbiyot ,falsafa va boshqa sohalardagi yuksak yutuqlarini,uning hozirgi zamon ilm-fan rivojiga qo'shayotgan hissasini yuqori baholaydi .Prezidentimiz Ibn Sinoning merosini nafaqat o'rganish ,balki uni yosh avlodga yetkazish ilmiy ishlarda undan ilhom olish zarurligini urg'ulagan . U kishining fikricha Ibn Sinodek buyuk mutafakkirlarning asarlari bizga ilmiy bilimlarni berish bilan birgalikda insonparvarlik va axloqiy qadriyatlarni ham o'rgatadi deb alohida ta'rif bergan .[1] Ibn Sino (980-1037)-O'rta asrlarining eng buyuk olimlaridan biri,Islom falsafasi va tibbiyot sohasining rivojlanishida muhim rol o'ynagan mutafakkir va ilmiy shaxsdir. Abu Ali Ibn Sino o'z davrida nafaqat Sharq ,balki G'arb olamida ham keng tanilgan. Ibn Sino hayotida davomida ko'plab sohalarda faoliyat olib borgan va muhim iz qoldirgan. U zot falsafa sohasidagi qiziqishi va shu sohada olib borgan izlanishlari bilan zamonasining mashhur olimlaridan biriga aylangan[3]. U o'zining falsafiy tizimlarini yaratishda Platon va Aristotelning asarlariga yuzlangan bo'lsa-da ,ularni Islmomiy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'lgan.Uning falsafaning rivojlanishiga bag'ishlagan eng muhim asarlaridan biri "Metafizika "va "Ilmiy tafakkur" muhim ahamiyatga ega bo'ldi.Ibn Sino ontologiya ( mavjudlik haqidagi talimot ) sohasida ishlar qilgan . U aql va ruhni aloqasini o'rganishda ham katta yutuqlarga erishgan. Uning fikricha aql va ruh o'rtasidagi munosabatlar inson tafakkurini tashkil etadi. U aqlni nafaqat ruhning balki tafakkur jarayonining ham asosiy vositasi deb bilgan,aql va ruhni tushunish koinotdagi qonuniyatlarni anglashda zarur vosita deb bilgan .[5]Ibn Sinoning Falsafa sohasida yutuqlari va izlanishlari haqida qancha gapirsak shuncha kamdir.U bilimni aql orqali va

tajriba, sezgilar orqali olish mumkinligini ta'kidladi. Ibn Sinoning bilimshunoslikdagi yondashuvi "mantiq" va "tajribani" birlashtirgan, bu esa ilmiy usullarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ibn Sino ilmiy tafakkur va mantiqni o'rganishdagi o'zining metodologiyasini ishlab chiqdi. Uning falsafiy ishlari o'z zamonining ilmiy metodologiyasi rivojlantirishga katta hissa qo'shgan va keyinchalik ilmiy izlanishlar uchun asos bo'lgan. Ibn Sino Aristotelning "Yagona haqiqat" g'oyasini rivojlantirgan. Bu g'oya Xudoning mavjudligi va barcha mavjudotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirishga xizmat qilgan. Ibn Sinoning bu qarashi, o'z vaqtida Islomiy tasavvuf va falsafaning o'zaro aloqasini chuqurroq tushunishga yordam bergan. Bugungi kunda insonlar hayotga yengillik bilan qarashni afzal ko'rmoqda. Lekin bunda "Baxt" va "Farovon" tushunchalarini anglashda oqsoqlikka yo'l qo'ymoqda. Ibn Sinoning "Al Ishorat va at tanbihot" asarida baxt va faravonlik degan tushunchalarni alohida tariflab o'tgan. Bu asarda baxt-saodat tushunchalariga ham keng tarif berilgan. Ibn Sino Islom falsafasida aql va din bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga qarama-qarshi emas, bir-birini tasdiqlovchi kuchlar ekanligini ta'kidlagan. [4] U aqlni insonga Yaratganning eng buyuk nemat sifatida kordi va uning yordamida inson dunyoni tushunishi va haqiqatdan ham Allohni tanish mumkinligini tushuntirdi. Ibn Sino metafizikaning asosiy g'oyalardan biri vujud va borliq tushunchasini ajratishdir. Ibn Sinoning etikasi ham uning falsafasining 7 muhim jihatlaridan biridir. U insonning maqsadi yuksalish va ruhiy poklanish deb bilgan. Abu Ali Ibn Sino Dekartdan olti asr oldin "Ishorat" asarida "Men fikrlayabman demak mavjudman" deb yozgan. Ibn Sino yuksak ta'lim ko'rgan kishi edi. U ozi qiziqqan va mashg'ul bolgan mashg'ulotlar va sohalarda har doim qanaqadur yangiliklar yaratgan. Umrining oxirgi yillarida Ibn Sinoning ahvoli ogirlashadi. Garchi o'zi ko'plab izlanishlar olib borgan bolsada, oshqozon kasalligi haqida kitoblar yozgan bo'lsa-da, shu kasallik bilan o'zi azob chekadi va xattoki dori ham qabul qilolmay qoladi. Shunda o'limidan oldin shunday deydi: "Qora chandan tortib samoviy jismlargacha So'z -u amal sirini o'rgandim

.Barcha hiyla nayranglarni tugunlarni yechdim ,lekin o'lim tugunini yecha olmadim degan ekan.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki ,Ibn Sinoning hayoti ham izlanishlari ,har bir sohada olib kirgan yangiliklari ham falsafasi ham juda chuqur va kop jihatdan hayotimizga ta'sir ko'rsatgan.Ibn Sino insonga Alloh tomondan berilgan nematlar ichida aqlni eng muhim deb bilgan ,chunki inson aql orqali Allohni taniydi,nimagadur intiladi, idrok qiladi ,va maqsad qo'yadi hamda shu maqsadlar ortidan aql orqali izlanib harakat qiladi muammolarga yechim topadi degan. Uning falsafasi bizni ilm olish bilan birga,axloqiy jihatdan ham yuksalishimizga ham undaydi.Ibn Sino aytishicha inson bilim olish orqali baxt -saodatga erishadi. Inson nimagadur intilar ekan ,unga avvalo erishish uchun sabr va katta kuch talab qilinadi, nechchi asrlardan buyon ota bobolarimizning bizgacha yetib kelgan asarlaridan ,bilim olish uchun ham tajribalar uchun ham foydalanib kelmoqdamiz va bu bizni yuksalishimiz uchun rivojlanishimiz uchun katta hissa qo'shmoqda .Bugungi kunda biz yoshlardan talab qilinadegan narsalar ularning qilgan mehnatlarini qadrlash va meroslarini ko'z qorachig'imizdek asrashdan iboratdir .Bizdan keyinggi avlod uchun ham uni yetkazib bera olishimiz kerak va bu bilimlarni yanada rivojlantirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

- 1.Shavkat Mirziyoyev "Ibn Sino va uning ilmiy merosi "mavzusida ilmiy anjumandagi rasmiy bayonotdagi nuqti.2019 -yil ,9-oktabr .
- 2.Abu Ali Ibn Sino "Al ishorat va at tanbihot " (Nasriddin at Tusiy sharhi)Qohira 1365 .-B 338.
- 3."Ibn Sina :A Great Philosopher" Muallif Seyyed Hossein Nasr -1970-yil .
- 4."Ibn Sino va uning ilmiy merosi " Muallif Shuhrat Hamidov .2019 -yil
- 5."Ibn Sino va uning falsafasi " Muallif :Abdulaziz Jumanov .2011-yil